# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№5

2026
MAY



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, may.*

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Shakarov Zafar Gʻafforovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻz FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Boʻtaboyev Mahammadjon Toʻychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulugʻbek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon oʻgʻli,** Texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Joʻraeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulugʻbek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEXANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI ........ 10
**Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna**
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА ........ 19
**Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович**
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 28
**Габбарова Ильмира Володиевна**
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH ........ 34
**Amirov Shavkat Rahmatullayevich**
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ........ 41
**Усманова Азиза Баходировна**
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH ........ 46
**Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li**
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 55
**Alimova Dilafro'z Tohir qizii**
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) ........ 61
**Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi**
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ........ 67
**Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 75
**Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi**
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH ........ 82
**Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li**
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI ........ 90
**Muxtorova Shaxlo Farxodovna**
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH ........ 94
**Qo'ziboyev Behzod Hamidovich**
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY ........ 99
**Sultanova Kamila Mukhtorali kizi**
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 104
**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH ........ 110
**Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich**

MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ..... 116
**Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna**
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .................... 120
**Turdikulova Moxira Maxmasharifovna**
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .................................. 125
**Kaxorova Zamira Safaraliyevna**

# KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI

**Kaxorova Zamira Safaraliyevna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Mintaqaviy iqtisodiyot ” kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy imperativlarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, moliyaviy ta’minot muammolari, davlat ko‘mak dasturlari samaradorligi va institutsional muhitning ta’siri, moliyalashtirishga cheklangan kirish, yuqori kredit foiz stavkalari hamda raqamli transformatsiyaning past darajasi o‘rganilgan. Maqolada amaliy tavsiyalar va moliyaviy-iqtisodiy imperativlar modeli taklif qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, mikromoliyalash, moliyaviy imperativlar, YaIM, iqtisodiy o‘sish, kredit resurslari, davlat ko‘magi, investitsiya, tadbirkorlik muhiti, raqamli transformatsiya, bandlik, lizing.

**Abstract:** This article is devoted to a comprehensive analysis of the financial and economic imperatives of small business development in the Republic of Uzbekistan. The role of small business in the national economy, problems of financial provision, the effectiveness of state support programs and the impact of the institutional environment, limited access to financing, high credit interest rates and a low level of digital transformation are studied. The article offers practical recommendations and a model of financial and economic imperatives.

**Keywords:** small business, microfinance, financial imperatives, GDP, economic growth, credit resources, state support, investment, business environment, digital transformation, employment, leasing.

**Аннотация:** Данная статья посвящена всестороннему анализу финансово-экономических императивов развития малого бизнеса в Республике Узбекистан. Рассматриваются роль малого бизнеса в национальной экономике, проблемы финансового обеспечения, эффективность программ государственной поддержки и влияние институциональной среды, ограниченный доступ к финансированию, высокие процентные ставки по кредитам и низкий уровень цифровой трансформации. В статье предлагаются практические рекомендации и модель финансово-экономических императивов.

**Ключевые слова:** малый бизнес, микрофинансирование, финансовые императивы, ВВП, экономический рост, кредитные ресурсы, государственная поддержка, инвестиции, деловая среда, цифровая трансформация, занятость, лизинг.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiy tizimlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tan olingan. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes barcha korxonalarning 90 % dan ortig‘ini tashkil etadi va umumiy bandlikning 60–70 % ini ta’minlaydi [1].

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekiston» taraqqiyot strategiyasida kichik biznes va tadbirkorlikning YaIMdagi ulushini 2030-yilga qadar 60 % ga yetkazish maqsadi qo‘yilgan [2].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, KBS rivojlanishini yanada jadallashtirish uchun moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, foiz stavkalarini maqbullashtirish, garov ta’minoti tizimini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va institutsional infratuzilmani modernizatsiya qilish KBSning to‘liq salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda O‘zbekistonda 283,9 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar va 905,8 ming kichik hamda o‘rta korxonalar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [2]. Shuning uchun KBS moliyaviy-iqtisodiy imperativlarini ilmiy asosda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Beck, Demirguc-Kunt va Levine 2005-yilda oʻzlarining fundamental tadqiqotlarida KBSning iqtisodiy oʻsishga ta'sirini 54 mamlakat boʻyicha oʻrganib, kichik biznesni rivojlantirish va daromad tengsizligini kamaytirishning uzviy bogʻliqligini isbotlashgan. Ularning metodologiyasi keyingi tadqiqotchilar uchun asos boʻlib xizmat qilgan [3]. Stiglitz va Weiss 1981-yilda moliya bozorlarida axborot asimmetriyasi modelini ishlab chiqib, KBS kreditga kirishining qiyinlashuvini izohladilar. Bu nazariya hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini saqlab kelmoqda va moliyaviy imperativlar tizimini shakllantirish uchun nazariy asos boʻlib xizmat qilmoqda [4].

Toshmatov A., Xasanov B. 2022-yilda Oʻzbekistondagi kichik biznesning moliyaviy muammolarini tahlil qilib, banklar va KBS oʻrtasidagi garov talablari masalasini koʻtardilar. Ularning tadqiqoti garov ta'minotining yetarli emasligi sababli soʻralgan kreditlarning 42 % i rad etilishini koʻrsatdi [5]. Mirzaev D., Umarov S. 2023-yilda Oʻzbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish tizimini isloh qilish imkoniyatlarini oʻrganib, mikrokredit institutlarini rivojlantirish va kafolatli fond mexanizmini joriy etish zarurligini asosladilar. Mualliflar venchur kapitali bozorini rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish tavsiyasini berdilar [6]. Xoliqov F. 2024-yilda Oʻzbekiston Respublikasida KBS raqamli transformatsiyasining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalar daromadlari 28–35 % ga oshishini isbotladi. Tadqiqot Oʻzbekiston KBSlari uchun raqamli transformatsiyaning moliyaviy imperativ ekanligini koʻrsatdi [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada Oʻzbekiston Statistika agentligi, Markaziy bank va Soliq qoʻmitasining 2022–2025-yillar rasmiy statistik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Qoʻshimcha ravishda Jahon banki, ADB (Osiyo taraqqiyot banki) va OECDning KBS boʻyicha xalqaro qiyosiy ma'lumotlari ishlatildi [8]. Maqolani kengroq yoritishda deskriptiv statistika, korrelyatsion tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekistonda KBS rivojlanishining umumiy tendensiyalari.

2023–2025-yillar davomida Oʻzbekistonda kichik biznes subyektlari soni barqaror oʻsish dinamikasini namoyish etdi. Statistika agentligi ma'lumotlariga koʻra, roʻyxatga olingan KBS soni 2023-yildagi 567 800 tadan 2025-yilga kelib 658 700 taga yetdi, ya'ni uch yil ichida 16,0 % ga oʻsdi [9].

Kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotga qoʻshgan hissasi tahlil qilinayotgan davrda sezilarli darajada oshdi. 2023-yilda KBS YaIMning 54,2 % ini tashkil etgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2025-yilga kelib 59,3 % ga yetdi. Quyidagi 1-jadvalda asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar keltirilgan (1-jadval) [10].

1-jadval. Oʻzbekistonda KBS asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari (2023–2025).

| Ko rsatkich | 2023 | 2024 | 2025 | O zgarish (%) |
|---|---|---|---|---|
| **KBS soni (ming. dona)** | 567,8 | 612,4 | 658,7 | +16,0% |
| **YaIMdagi ulushi (%)** | 54,2 | 56,8 | 59,3 | +5,1 pp |
| **Bandlik ulushi (%)** | 42,1 | 44,6 | 47,2 | +5,1 pp |
| **Eksportdagi ulushi (%)** | 18,4 | 20,1 | 22,6 | +4,2 pp |
| **Soliq tushumlari ulushi (%)** | 31,2 | 33,5 | 35,8 | +4,6 pp |
| **Bank kreditlari portfelida (%)** | 22,8 | 25,3 | 28,1 | +5,3 pp |
| **Oʻrtacha KBS qiymati (mln. so'm)** | 485 | 542 | 618 | +27,4% |

Kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotga qoʻshgan hissasini yanada oshirish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, risklarni diversifikatsiya qilish, moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish muhim hisoblanadi. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda tarqoq (fragmentatsiyalashgan) manbalarni yagona tizimga birlashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish samaradorligini oshirish, integratsiyalashgan moliyalashtirish tizimini joriy etish orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishni ta'minlaydi. Kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida moliyalashtirishda "bank krediti + mikromoliyalashtirish + lizing + innovatsion moliyalashtirish + davlat moliyaviy qoʻllab-quvvatlash" mexanizmlarining oʻzaro bogʻliqligini ta'minlaydigan integratsiyalashgan moliyaviy-iqtisodiy imperativ modelini tatbiq etish orqali yagona moliyaviy tizimni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagi taklif bilan birgalikda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasini yanada oshirish uchun kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirishda kreditlar ajratishda ularga garov talabini 50 % ga kamaytirish orqali kichik biznes subyektlari va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yondashuv kredit risklarini bank va davlat o‘rtasida taqsimlash orqali moliya institutlarining kredit berish faolligini oshiradi. Natijada, norasmiy sektordagi subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga jalb etilishi tezlashadi, tadbirkorlik faolligi ortib, bandlik va daromad manbalari ko‘payadi hamda garovga bo‘lgan ortiqcha talab qisqarishi hisobidan kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

KBS bandlik sohasida ham muhim rol o‘ynamoqda. Iqtisodiy faol aholining kichik biznes sektorida band bo‘lgan ulushi 2023-yildagi 42,1 % dan 2025-yilga kelib 47,2 % ga yetdi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda ishsizlikni kamaytirishda KBSning hal qiluvchi roliga dalolat beradi (1-rasm) [11].




**1-rasm. KBS da band bo‘lgan ishchi kuchi ulushi (%)**

KBSda band bo‘lgan ishchi kuchi ulushining ortib borishi va bu barqarorlikni ta’minlashda kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida kichik biznes subyektlarida «yaxshi» va «a’lo» kredit tarixiga ega bo‘lgan tarmoq subyektlari uchun avval olgan kreditlari bo‘yicha kafillik yordamidan foydalanayotgan bo‘lishidan qat’i nazar, qo‘shimcha ajratiladigan kreditlar bo‘yicha belgilangan umumiy miqdorlar doirasida kafillik taqdim etish maqsadga muvofiq. Ya’ni «yaxshi» va «a’lo» kredit tarixiga ega kichik biznes subyektlariga qo‘shimcha kreditlar bo‘yicha kafillik taqdim etish mexanizmi kredit resurslarini samarali taqsimlashni ta’minlaydi. Bunda moliyaviy intizomli va ishonchli qarz oluvchilarni rag‘batlantirish orqali kredit risklari pasayadi va banklarning kredit berish faolligi oshadi.

Natijada, barqaror faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyati kengayadi, ularning o‘sish sur’atlari tezlashadi hamda KBS moliyalashtirish manbalari tarkibini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda O‘zbekiston KBSlari moliyalashtirishining asosiy manbai o‘z mablag‘lari (35,6 %) hisoblanadi. Bank kreditlari 28,4 % ni, davlat dasturlari 14,2 % ni, mikrokredit 12,8 % ni tashkil etmoqda (2-rasm) [12].




2-rasm. KBS moliyalashtirish manbalari tarkibi (2024)

KBS moliyalashtirish manbalari tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda eksportni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va kreditlashda innovatsion yondashuv asosida aqlli kreditlash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Natijada kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonini takomillashtirish maqsadida an’anaviy garovga asoslangan kreditlash amaliyotidan farqli ravishda, mijozning moliyaviy va nomoliyaviy (alternativ) ma’lumotlarini kompleks baholash orqali kredit risklarini kamaytirish hamda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish mumkin bo‘ladi. Ishlash prinsipi shundan iboratki, unda mavjud kichik biznes subyektlarining iqtisodiy va moliyaviy holatini aniqlash asosida kredit qobiliyatini baholovchi skoring modeli yordamida kreditlash amalga oshiriladi. Ya’ni biznes subyektlarining daromadi, aylanma mablag‘lari, qarz yuki va boshqa ko‘rsatkichlari tahlil qilingan holda qaror qabul qilinadi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida tarmoq subyektlari ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirish uchun kreditlar ajratishda ularga garov talabini 50 % ga kamaytirish natijasida kichik biznes subyektlari va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yondashuv kredit risklarini bank va davlat o‘rtasida taqsimlash orqali moliya institutlarining kredit berish faolligini oshiradi. Natijada, norasmiy sektordagi subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga jalb etilishi tezlashadi, tadbirkorlik faolligi ortib, bandlik va daromad manbalari ko‘payadi hamda garovga bo‘lgan ortiqcha talab qisqarishi hisobidan kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Tadqiqot davomida 500 dan ortiq KBS vakillari bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida moliyalashtirishga kirishdagi asosiy to‘siqlar aniqlandi. Quyidagi jadvalda to‘siqlar darajasi va ularning tarqalish ko‘rsatkichlari keltirilgan (2-jadval)[13].

2-jadval. KBS moliyalashtirishga kirishdagi to‘siqlar darajasi (so‘rovnoma natijalari, %)

| To siq turi | 2023 (%) | 2024 (%) | 2025 (%) | Ahamiyat darajasi |
|---|---|---|---|---|
| Garov ta’minotining yetarli emasligi | 68,4 | 65,2 | 61,8 | Yuqori |
| Foiz stavkalarining yuqoriligi | 72,1 | 70,3 | 67,5 | Yuqori |
| Moliyaviy savodxonlikning pastligi | 45,3 | 42,1 | 38,6 | O‘rtacha |
| Kredit tarixining yo‘qligi | 38,7 | 35,4 | 31,2 | O‘rtacha |
| Hujjatlar tayyorlashning murakkabligi | 55,2 | 48,6 | 42,3 | O‘rtacha |
| Banklar bilan uzoq masofa | 22,4 | 19,8 | 16,5 | Past |
| Valyuta riskidan qo‘rquv | 18,6 | 16,2 | 13,4 | Past |

KBS moliyalashtirishga kirishdagi to'siqlarni bartaraf etishda kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy imperativlari asosida tarmoq subyektlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va aylanma mablag'lar yetishmasligini bartaraf etish maqsadida KBSlarga yillik 2 mlrd so'mgacha overdraft kreditlash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Natijada kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'lar uzluksizligi ta'minlanadi, likvidlik darajasi oshadi va to'lovga layoqatlilik mustahkamlanadi, tarmoq subyektlari o'rtasidagi debitor-kreditor qarzlar aylanishi tezlashadi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlaridagi uzilishlar kamayadi.

O'zbekiston KBS ko'rsatkichlarini qo'shni va o'xshash rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda asosiy qiyosiy ko'rsatkichlar keltirilgan (4-jadval) [16].

4-jadval. KBS xalqaro qiyosiy ko'rsatkichlari (2024)

| Mamlakat | KBS/YalM (%) 2024 | Kredit kirishuv darajasi (%) | O'rtacha foiz stavkasi (%) | Bandlik ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|
| O'zbekiston | 56,8 | 38,4 | 22,5 | 44,6 |
| Qozog'iston | 62,3 | 52,1 | 16,8 | 51,2 |
| Turkiya | 74,1 | 67,3 | 28,4 | 63,8 |
| Ozarbayjon | 58,4 | 55,6 | 18,2 | 49,3 |
| Vetnam | 68,2 | 61,4 | 9,8 | 58,7 |
| OECD o'rtacha | 55,8 | 71,2 | 5,4 | 66,3 |

O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi KBS rivojlanish ko'rsatkichlari asosida kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va tarmoq xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi 2030-yilgacha strategik prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan bo'lib, strategik prognoz ko'rsatkichlari tarmoq xo'jaliklarida ishlab chiqarishni uzoq muddatli va ilmiy asoslangan rejalashtirish imkonini beradi. Bu orqali resurslardan samarali foydalanish, investitsiya yo'nalishlarini aniq belgilash va bozor talabiga mos ishlab chiqarish hajmlarini shakllantirish ta'minlanadi. Natijada, tarmoqlarda barqaror o'sish sur'atlari, raqobatbardoshlik va eksport salohiyati oshadi hamda iqtisodiyotning tarkibiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy imperativlarini 2023–2025-yillar statistik ma'lumotlari asosida kompleks o'rganish natijasida bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon berdi. O'zbekistonda KBS sektori barqaror miqdoriy o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. Moliyalashtirish imperativlari sifatida uchta asosiy yo'nalish aniqlandi: (a) kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish — foiz stavkalarini maqbullashtirish va garov mexanizmlarini yanada takomillashtirish; (b) moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish; (c) kredit tarixi infratuzilmasini rivojlantirish. Davlat ko'mak dasturlari muayyan samaradorlikni ko'rsatmoqda va ularning qamrovi hamda koordinatsiyasini yanada kuchaytirish istiqbolda yuqori natijalarga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. Z. Jabborova Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining rivojlanishi va uning ilmiy-nazariy asoslari "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. 11-son 2025 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni // URL: https://lex.uz/docs/-7444738
3. Beck, T., Demirguc-Kunt, A., & Levine, R. (2005). SMEs, Growth, and Poverty. Journal of Economic Growth, 10(3), 199–229.
4. Stiglitz, J.E., & Weiss, A. (1981). Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. American Economic Review, 71(3), 393–410.
5. Toshmatov A, Xasanov B. (2022). O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning muammolari. Iqtisodiyot va moliya, 4, 45–58.
6. Mirzaev D, Umarov S. (2023). Kichik biznes moliyalashtirish tizimini isloh qilish. Biznes ekspert, 2, 12–24.
7. Xoliqov F. (2024). KBS raqamli transformatsiyasining iqtisodiy samaradorligi. Raqamli iqtisodiyot, 1(3), 78–95.
8. O'zbekiston Statistika agentligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: statistik to'plam 2025. Toshkent: Davstat, 2025. – 210 b.
9. O'zbekiston Statistika agentligi. 2025 yil 1-chorak hisoboti. Toshkent: Davstat, 2025.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2024. Toshkent: O'zMB, 2025. – 186 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Mehnat bozori tahlili 2024–2025. Toshkent, 2025.

12. Tadbirkorlik vazirligi. KBS moliyalashtirish monitoringi. Toshkent, 2025. – 68 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Iqtisodiy faollik turlari bo’yicha statistika 2025. Toshkent: Davstat, 2025.
14. O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik vazirligi. KBS ko‘mak dasturlari hisoboti 2024. Toshkent, 2024. – 95 b.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 5**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100